TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O‘RNI

Usmonova Sofiya Alimovna
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
Avazmatova Shahzodaxon
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada toponimiya tarkibiga kiruvchi etnotoponimlar va ularning tarqalish areali haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: urug‘, qabila, qavm, xalq nomlari – etnonimlar, etnooykonimlar.

Farg‘ona vodiysi toponimiyasi tizimida urug‘, qabila, qavm, xalq nomlari – etnonimlar asosida vujudga kelgan toponimlar alohida o‘rinni egallaydi. O‘tmishda bu hududda o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qipchoqlar, mang‘itlar, yuzlar, qirqlar, qo‘ng‘irotlar, naymanlar, quramalar, qanglilar, olchinlar, saroylar, kenagaslar, do‘rmonlar, qatag‘onlar va shu kabi turli qavmlar istiqomat qilganlar. Tabiiyki, bu qavmlar, urug‘lar vodiy toponimiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Aholi yashash maskanlarining ko‘pchiligi ularning nomlari bilan atalib ketgan.

Vodiy etnooykonimlari tarkibini qipchoqlar va ularning urug‘lari nomlari bilan atalganligiga guvoh bo‘lamiz. Darhaqiqat, XIX asr oxirlarida Farg‘ona vodiysida qipchoqlar 70 ming kishini tashkil etganlar. 1917-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra vodiyda 84 ta qipchoq qishloqlari mavjud bo‘lgan [9. 109-110].

Binobarin vodiyda qipchoq etnonimiga aloqador toponimlar bir necha joyda uchraydi. Chunonchi, Namangan viloyatining Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Chortoq, Pop, Andijon viloyatining Izboskan, Oltinko‘l, Asaka, Farg‘ona viloyatining Beshariq, Toshloq, Rishton tumanlaridagi Qipchoq deb ataluvchi aholi maskanlari hamda Andijon viloyatining Izboskan va Namangan viloyatining Norin tumanlaridagi Qipchoqovul, Farg‘ona viloyatining Toshloq tumani va Qo‘qon shahridagi Qipchoqariq oykonimlari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Shuningdek, vodiyda qipchoq qabilasining urug‘lari nomlari bilan atalgan toponimlar ham bir necha joyda uchraydi. Yashiq, Yettiqashqa, Puchug‘oy, Elaton, O‘lmas, Tumor, Sirmoq, Qo‘g‘ay, Bachqir, Qorabo‘yin, Tovuldi, Chang‘aroqchi, Oqbo‘yra, Bug‘ach, To‘rayg‘ir, Qizilmush, Uzunqishloq, So‘zoq singarilar shular jumlasiga kiradi.

Farg‘ona vodiysida 15 dan ziyod qishloq Qurama nomi bilan yuritiladi. Bu aholi maskanlari Uychi, Uchqo‘rg‘on, Norin, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy, Izboskan, Xo‘jaobod, Asaka, Andijon, Beshariq tumanlari hududidadir. Mazkur oykonimlarning nomlanishi bevosita qurama etnonimi bilan bog‘liqdir. 1926-yilgi aholi ro‘yxatiga ko‘ra respublikamizda yashovchi quramalarning soni 50 mingga yaqin bo‘lgan [6. 246.]. Bu etnik guruhga mansub kishilar Ohangaron havzasida, Andijon

bilan Namangan orasida turib qolganlar [7. 9.]. Farg‘ona vodiysidagi quramalar XVII asrda, asosan, XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida Ohangaron va uning atrofidagi qishloqlardan ko‘chib kelganlar va sekin–asta o‘troqlashib, mahalliy aholiga aralashib ketganlar [2. 39-40.]. Quramalarning vodiyda joylashib qolishi, tabiiyki, joy nomlarida o‘z izini qoldirgan. Yuqorida keltirilgan etnooykonimlar bunga yorqin dalildir.

Farg‘ona vodiysida, xususan, Qo‘qon guruhi tumanlarida bir necha aholi maskani Jaloyir deb ataladi. Bu qishloqlar Uchko‘prik, Furqat, Buvayda, Rishton tumanlari hududlarida joylashgan. Ushbu oykonimlar jaloyir etnonimi asosida yuzaga kelgan. Jaloyirlar o‘tmishda yirik qabilalardan hisoblangan va bir necha urug‘larga bo‘lingan. Abulg‘ozi Bahodirxon “Shajarayi turk” asarining “Jaloyir elining zikri” qismida bu haqda: «Qadim el turur. Benihoyat ko‘p bo‘lur erdi… Urug‘lari ko‘p erdi» deb yozgan [1. 85.]. 1920- va 1926-yillardagi aholi ro‘yxatida O‘zbekistonda yashovchi jaloyirlarning soni 25 ming kishiga yaqin ekanligi aniqlangan. Ular Toshkent, Buxoro vohasida, Nurota tog‘i etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Karmana, Qorako‘l tumanlarida va Xorazmda yashaganlar [4. 294]. Shuningdek, jaloyirlar Farg‘ona vodiysida ham hayot kechirganlar. Yuqorida zikr etilgan Jaloyir nomli qishloqlar buning dalilidir.

Vodiy hududida yashagan etnik guruhlardan yana biri turklardir. 1924-1925-yillardagi statistik ma’lumotlarga qaraganda, Farg‘ona vodiysida istiqomat qilgan turklar 24 ming 279 kishidan iborat bo‘lgan [5. 364]. Katta Turk, Kichik Turk (Dang‘ara tumani), Turkqishloq, Turkravot (Quva tumani), Turk (Buvayda tumani), Turklar (Toshloq tumani) oykonimlari mana shu turk qabilasi nomi bilan atalgandir.

O‘zbek xalqi tarkibiga kirgan saroy qabilasi vakillari o‘tmishda Buxoro, Karmana, G‘ijduvon, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Jizzax atroflarida, qisman Farg‘ona vodiysida yashagan [7. 9.]. O‘zbekistonda saroy etnonimidan yasalgan bir qator qishloq nomlari mavjud. Xususan, Farg‘ona vodiysida ularning soni 10 dan ortiqdir. Andijon viloyatining Shahrixon, Oltinko‘l, Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on tumanlaridagi Saroy; Farg‘ona viloyatining Dang‘ara tumanidagi Kapasaroy, Toptiqsaroy; Bag‘dod tumanidagi Do‘ngsaroy; Namangan viloyati Uychi tumanidagi Tepasaroy; Chust tumanidagi Og‘asaroy; Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanidagi Qo‘shtepasaroy toponimlari shunday nomlar jumlasidandir.

Farg‘ona viloyatining Dang‘ara, Buvayda, Uchko‘prik, Andijon viloyatining Izboskan, Paxtaobod, Namangan viloyatining Namangan tumanlaridagi Urganji, Qo‘qon shahridagi Urganjibog‘ toponimlari urganji etnonimidan nom olgan. N.Veselovskiy, O.A.Suxarevalarning yozishiga qaraganda, urganjilar XVIII asr oxirida Urganch shahridan chiqib, Buxoroga va boshqa yerlarga o‘rnashgan o‘zbeklardir [8. 126.]. Darhaqiqat, Farg‘ona vodiysidagi urganjilar shu davrlarda vodiy hududiga kelib o‘rnashgan bo‘lishlari mumkin. XIX asr Qo‘qon xonligi tarixiga oid

manbalarda ham bu yerlarda urganji qavmiga mansub kishilar istiqomat qilganligi va ular o‘z urug‘larining nomini unutmaganliklari qayd etilgan [3. 145].

Bulardan tashqari, Farg‘ona vodiysi toponimiyasi tizimida yana Kenagas, Bahrin, Do‘rmon, Olchin, Uyrot, Turg‘oq, Kaltatoy, Minglar, Qirqlar, Uyshun, Telov, Chimboy, Qiyali, Uymovud, Qoraqo‘yli, Chuvalanchi, Nayman, Xitoy, Qo‘ng‘irot, Qangli, Beshbola, Beshsaroy, Arg‘in, Beshqovoq singari toponimlar uchraydiki, bular bevosita shu nomdagi etnonimlar asosida shakllangandir.

Xullas, Farg‘ona vodiysi toponimlarning yuzaga kelishida etnonimlar alohida o‘ringa egadir. Bu xil etnotoponimlar ma’lum hududda yashab kelgan turli qabilalar, qavmlar, urug‘larga oid ko‘plab ma’lumotlar beradi, o‘zbek xalqining shakllanish tarixini, etnogenezisi masalasini yoritishda qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulg‘oziy. Shajarayi turk. -Toshkent, 1992.
2. Губаева С. Население Ферганской долины в конце XIX- начале XX в. -Ташкент, 1991.
3. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. –Ташкент, 1973.
4. O‘zSE. 4-tom. -Toshkent, 1973.
5. O‘zSE. 11-tom. -Toshkent, 1978.
6. O‘zSE, 14-tom. Tokent. 1980.
7. Qoraev S. Etnonimika. -Toshkent. 1979.
8. Qoraev.S. Etnonimika. –Toshkent, 1979.
9. Qoraev.S. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? –Toshkent. 1970.
10. Шаниязов. К.Ш. К этнической истории узбекского народа. - Ташкент, 1974.